

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA`LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
PEDAGOGIK TA`LIM KAFEDRASI**

**“OLIIY TA`LIM SIFATI – YANGI O`ZBEKISTON
TARAQQIYOTINI YANADA YUKSALTIRISHNING
MUHIM OMILI”**

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN

MATERIALLARI

(2024 йил 10 oktabr)

Buxoro - 2024

“Oliy ta’lim sifati - Yangi O‘zbekiston taraqqiyotini yanada yuksaltirishning muhim omili” mavzusidagi // respublika ilmiy-amaliy anjumani. Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2024. 300 bet

Ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plamida Respublikamiz va Rossiya olimlari, soha mutaxassislari, ilmiy tadqiqodchilar, magistrtlar, talabalar maqolalari o’rin olgan.

Ilmiy anjumanning dasturiy qo’mitasi

1.	B.B.Ma’murov	–	Institute rektori, p.f.d., professor, rais;
2.	Sh.N.Murodov	-	Buxoro davlat pedagogika instituti ilmiy ishlar prorektori, f.f.f.d.(Phd), dotsent hamrais;
3.	G.R. Akramova	–	BuxDPI ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar bo’lim boshlig’i, p.f.d (DSc), professor rais o’rinbosari.
4.	E.M. Muxtorov	–	BuxDPI dotsenti, p.f.n., a’zo;
5.	S.Q. Qahhorov	–	BuxDu professori, p.f.d. a’zo;
6.	B.Q.Xodjayev	–	BuxDu professori, p.f.n. a’zo;
7.	Sh.SH.Olimov	–	BuxDu professori, p.f.d. a’zo;
8.	G.V.Izbullayeva	–	BuxDPI professori, p.f.d. a’zo;;
9.	M.Ya.Ergashov	–	BuxDPI professori, k.f.n., a’zo;
10.	G.T.Boymurodova	–	BuxDPI professori, p.f.d. (DSc), a’zo;
11.	Q.F.Abdullayev	–	BuxDPI dotsenti, a’zo;
12.	M.Farmonov		Vobkent tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo’limi boshlig’i a’zo;
12.	S.M.Umarova	–	BuxDPI dotsenti p.f.f.d.(Phd), a’zo;
13.	A.N.Nusratov	–	BuxDPI dotsenti p.f.f.d.(Phd), a’zo;

Mas’ul muharrir:

S.M.Umarova pedagogika fanlari bo’yicha, falsafa doktori (PhD), dotsent

Taqrizchi:

Sh.SH.Olimov, pedagogika fanlari doktori, professor

G.V.Izbullayeva pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

To’plovchi va nashga tayyorlovchi:

A.N.Nusratov

Zero, har bir oilada o'g'il farzand tug'ilganda ota-ona bilan bir qatorda yurt – Vatan ham suyunib, shodu xurram bo'lar ekan. Chunki o'g'il farzand nafaqat ota-onasi, oilasini, balki butun xalqini, Vatanini himoya qiladigan o'g'lon hisoblanadi. Yurtimiz tinchligi va barqarorligini saqlashda, mamlakatimiz hududini himoya qilishda harbiy xizmatchilarning xizmatlari beqiyosdir.

Xulosa qilib aytganda, oldimizda turgan asosiy vazifa – yoshlar ongida ona-Vatanga muhabbat, sadoqat, insonparvarlik, milliy g'urur kabi g'oyalarni chuqur singdirgan holda milliy o'zligini anglashga erishishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'oziyev E.G'. —Umumiy psixologiyal. T., 2010.
2. Ivanov P.I., Zufarova M. —Umumiy psixologiyal, O'z FJ., 2008.
3. Haydarov F.I., Xalilova N. —Umumiy psixologiyal. T.: —Fan va texnologiyalar markazining bosmaxonasi. J 2009.
4. G'oziev E.G'. Ontogenez psixologiyasi. T.Noshir, 2010.
5. Do'smuxamedova Sh.A., Nishonova Z.T., Jalilova S.X., Karimova Sh.K., Alimbaeva Sh.T. —Yosh va pedagogik psixologiyal. T.: TDPU, 2013.
6. A.X.Yoray, H.A.Mirashirova. —Общая психология. Т. ТГПУ, 2014.
7. Maxsudova M.A. Muloqot psixologiyasi, T, 2006. 8.G'oziyev E.G'. —Pedagogik psixologiyal. T., 2004.

O'ZBEK TILIDA FUTBOL ATAMALARINING IFODALANISHI

Ibragimov Manuchexr Baxtiyorovich

Buxoro davlat pedagogika instituti

Jismoniy tarbiya va sport kafedrasida

dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

ibragimov.manuchekhr@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada futbol atama va terminlarining kelib chiqishi, tarixi, tavsifi ochib berilgan. Ushbu terminlarning ma'nosi, turli tillarda taqqoslanishi haqida so'z yuritiladi. Qolaversa o'zbek futbol atamalarining izohi tahlil qilingan va umumiy xulosalar keltirilgan

Kalit so'zlari: bahsli to'p, burchak to'pi, darvozabon, darvozabon maydonchasi, darvozadan chiqib ketish, mavsum, maydon markazi, markaziy doira, markaziy hujumchi, mashg'ulot.

Аннотация В данной статье раскрывается происхождение, история и описание футбольных терминов. Кроме того, обсуждаются значения терминов и их сравнение на разных языках. Также, проанализирована трактовка футбольных терминов на узбекском языке и представлены общие выводы.

Ключевые слова: спорный мяч, угловой мяч, вратарь, вратарская площадка, выход из ворот, сезон, центр поля, центральный круг, центральный нападающий, тренировка.

Abstract. This article reveals the origin, history, and description of football terms. In addition, the meaning of the terms and their comparison in different languages are discussed. In addition, the interpretation of Uzbek football terms is analyzed and general conclusions are presented.

Key words: controversial ball, corner ball, goalie, goalie pitch, out of goal, season, field center, center circle, center forward, practice.

Kirish. Hozirgi kunda o'zbek tilining sohaviy atamashunosligi har tomonlama takomillashish jarayonini boshidan kechirmoqda. Atamalarining ular ifodalaydigan narsa-buyum, voqea-hodisa tushunchasi ma'no-mazmuniga mos tushishi, tuzilish (shakl) jihatidan ixcham bo'lishi, yakka ma'noni ifodalashi, ma'nodoshlik qatorlariga kirmasligi kabi talablar atamashunoslar diqqat markazidan joy olgan. Xalqaro aloqalarning faollashuvi natijasida xorijiy tillardan shiddat bilan kirib kelayotgan fan-texnikaga doir atamalarni qanday tarzda qabul qilish, o'zlashtirish eng bahsli hodisalardandir. Yurtimiz mustaqillikka erishganidan so'ng o'zbek atamashunosligi nafaqat miqdor, balki sifat o'zgarishlariga ham jiddiy qarab kelmoqda. Tilimizning keng imkoniyatlaridan foydalangan holda tor ixtisoslik sohalariga oid atamalar tizimini tartibga

solish, shuningdek, o‘zbek tilining umumiy lug‘atlarida sport atamalarining to‘g‘ri ifodalanishini ta’minlash kechiktirib bo‘lmas vazifalardan sanaladi[1,2].

Tadqiqotning maqsadi olib borilgan ko‘p yillik tadqiqotning maqsadi futbol terminlarning kelib chiqishi, ishlatilishi va mazmunini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning borishi. Jamiyat hayotida, xususan, insonlarning jismonan va aqlan sog‘lom bo‘lishida sportning o‘ziga xos o‘rni va ahamiyati bor. Ayni paytda sport sohasi ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun nihoyatda keng jabhadir va, shunday ekan, sportga oid bilimlarni rivojlantirish, soha atamalarini tizimlashtirgan holda o‘rganish, ularni lug‘atlarda berish, butun atamalar tizimi ichidan umumiy filologik lug‘atlar uchun tanlab olish tamoyillarini ishlab chiqish nafaqat tilshunoslik uchun, balki jamiyat hayotining yanada ildamlashiga mas’ul har bir soha uchun ahamiyatli hisoblanadi.

Tadqiqotimiz ob’ektisifatida olingan futbol sportiga oid atamalardan ayrimlarining izohlanishiga diqqatimizni qarataylik. Masalan:

BAHSLI TO‘P To‘p o‘yinda bo‘lgan vaqtda o‘yin qoidasida ko‘zda tutilmagan holat bo‘yicha vaqtincha to‘xtatilgandan so‘ng o‘yinni yangilash usulidir. Hakam o‘yinni to‘xtatganda to‘p qayerda bo‘lsa o‘sha joydan to‘pni tashlab beradi. To‘p yerga tegishi bilan o‘yin davom etadi.

BURCHAK TO‘PI To‘pni burchakdan o‘yinga kiritish o‘yinni davom ettirish usullaridan biri hisoblanadi. To‘p ko‘rsatilgan 1 mert radiusli burchakdagi bayroqcha oldidan (maxsus sektor ichidan) tepiladi. Burchak to‘pi amalga oshirilayotganda raqib o‘yinchisi tepilayotgan joydan kamida 9 m masofada turishi lozim. Burchak to‘pidan kiritilgan gol albatta hisobga olinadi, agar bu raqib darvozasiga kiritilsa. Burchak to‘plari quyidagi hollarda belgilanadi: To‘p darvoza chizig‘idan yerda yoki havoda to‘liq kesib o‘tgan bo‘lsa va bu to‘pga so‘nggi bo‘lib himoyalananayotgan futbolchi tekkan bo‘lsa.

DARVOZABON Ba’zi sport turlarida jamoa o‘yinchilaridan biri. Uning asosiy vazifasi o‘yin davomida raqib guruh tomonidan yo‘naltirilgan to‘pni o‘z darvozasiga kirishiga yo‘l qo‘ymaslikdan iborat. Darvozabonlar o‘yin davomida boshqa guruh o‘yinchilariga qaraganda alohida imkoniyatlarga egadirlar. Futbol o‘yinida misol uchun darvozabonlar qo‘llari yordamida o‘ynashga huquqlidirlar. Darvozabonlar odatda, baland bo‘yli, yaxshi refleks va ajoyib epchillikka ega futbolchilar bo‘lishadi. Odatda har bir jamoada asosiy darvozabon va ikki nafar o‘rinbosar darvozabonlar bo‘ladi. Bundan tashqari darvozabonlar o‘yin davomida boshqa guruh o‘yinchilaridan ajralib turadigan kiyim va mahsus jihozlarda bo‘ladilar. Futbol o‘yini darvozabonlari to‘pni qulayroq tutib olish maqsadida mahsus qo‘lqopga egadirlar [3,4].

DARVOZA MAYDONCHASI Maydonning har bir yarmida darvoza zonasi — darvoza zarbasi amalga oshiriladigan zona belgilanadi. Har bir darvoza ustunining ichki qismidan 5,5 m (6 yd) masofada joylashgan nuqtalardan ichki tomonda darvoza chizig‘iga to‘g‘ri burchak ostida ikkita chiziq tortiladi. Darvoza chizig‘idan 5,5 m (6 yd) masofada bu chiziqlar darvoza chizig‘iga parallel boshqa chiziq bilan bog‘langan. Shunday qilib, darvoza maydonchasining o‘lchamlari 18,32 m (20 yd) × 5,5 m (6 yd) ga teng.

DARVOZADAN CHIQIB KELISH Darvoza chizig‘idan uzoqroqqa borish (odatda darvozabon hududidan tashqarida), masalan, uzatmani qabul qilish yoki ushlab turish maqsadida.

MAVSUM Bir taqvim yili mobaynida o‘tkaziladigan musobaqalar va tayyorgarlik jarayonlari. Mavsum boshlanish va tugash vaqti barcha mamlakatlarda bir xil emas. Ayrim mamlakatlarda bahor-kuz tizimida musobaqalar mart oyida boshlanadi. Kuz-bahor tizimida o‘ynaydigan mamlakatlarda iyul yoki avgustda musobaqalar boshlanadi.

MAYDON MARKAZI Maydon o‘rta chizig‘ining o‘rtasida joylashgan nuqta. Markaz atrofida radiusi 9 m ga teng bo‘lgan aylana soha chizilgan. Har bir taym boshida va urilgan goldan keyin to‘p maydon markaziga o‘rnatiladi. Futbolchilar to‘pni markazdan to‘p aylanasi uzunligiga teng bo‘lgan masofaga surishgan vaqtda o‘yin tiklanadi. O‘yin markazidan o‘ynashda raqiblar 9 metrli sohadan keyinda turishlari kerak.

MARKAZIY DOIRA Maydondagi belgi elementi. Maydon markazidan hisoblaganda 9 metrli radiusga ega. Boshlang‘ich zarba berilayotganda raqib o‘yinchilari bo‘lmashliklari kerak bo‘lgan sohani bildiradi.

MARKAZIY HUJUMCHI Markaziy hujumchi yoki markaz-forvardi (inglizcha: *centre forward*), yoki „sof hujumchi“ning yagona vazifasi - to‘pni raqib darvozasiga kiritish. Ko‘pchilik

jarima maydonchasi ichida yoki yonida bo'lib, doimo to'pni qabul qilish va darvozaga oshirish imkoniyatini izlaydi. Bunday o'yinchilarni ko'pincha „darvozadagi tulkilar“ (*inglizcha: Fox in the box*) deb atashadi, chunki ular asosan raqib jarima maydonchasida harakat qilishadi. Ular yuqori tezlikka ega bo'lishlari shart emas, asosiysi kerakli vaqtda kerakli joyda paydo bo'lish va to'pga mohirona zarba berishdir.

Markaziy hujumchining yana bir turi - kuchli, jismonan rivojlangan o'yinchi bo'lib, to'pni bosh bilan yaxshi o'ynaydilar va to'pni to'sadilar (ko'pincha „taranlar“ (ayovsizlar) deb atashadi). Butun jamoa ularga to'plarni yetkazib berish uchun harakat qilishadi va ular bosh bilan gol urishadi yoki to'pni to'sgan holda uni jarima maydonchasiga yorib kiradilar, gol urishadi.

Ushbu pozitsiyadagi ba'zi hujumchilar faqat to'pga egalik qilishning noyob texnikasi tufayli gol urishadi. To'pni qabul qila turab, ular yuqori tezlikda jarima maydonchasiga yorib kirishadi va hiyla-nayrang bilan himoyadan xalos bo'lishadi va darvozabon yoki bo'sh darvoza bilan yakkamayakka qolib, to'pni darvoza tomon oshiradilar. Ko'pgina o'yinchilar natijaga erishish uchun barcha usullardan to'g'ri foydalanadilar. Ular o'zlarining keng ko'lamli qobiliyatlari bilan har qanday imkoniyatdan foydalanishlari mumkin - o'yinni o'qish, noan'anaviy harakatni qo'llash - va to'pni darvozaga kiritish.

Ushbu rol o'yinchilariga to'qqizinchi raqamni berish an'anasi mavjud. Ushbu an'ana 1927/1928-yilgi mavsumda Angliya chempionatida 60 ta gol urgan Diksi Dinadan kelib chiqqan deb hisoblanadi [5,6].

MASHG'ULOT bu olingan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash va takomillashtirishga qaratilgan tayyorgarlikning keyingi bosqichi. Mashg'ulotning asosiy mazmuni - texnik usullarni taktikadagi individual, grupp va jamoada harakatlarini takomillashtirishdan, jismoniy, axloqiy va irodaviy xislatlarni rivojlantirishdan iborat [7].

Futbol atamalarning berilishi bilan aloqador masalalardan biri yuqorida ham tilga olingan maxsus belgilarning (pometka) qo'llanishidir. Turli tipdagi umumiy lug'atlarda atamalar leksikasining leksikografik tavsifi uchun xizmat qiluvchi belgi ishoralar tizimi xususiy va umumiy belgilarni o'z ichiga oladi.

Xulosa. Yuqorida aytilganlarga asoslanib, shuni ta'kidlash mumkinki futbol atamaları uzoq tarixga ega. Futbol o'yini rivojlanishi va tarqalishi bilan taraqqiy etib boshladi. Shu uchun futbolning ommaviyligi ortib bormoqda. Bu haqiqat bir qator ob'ektiv sabablar bilan izohlanadi. Bugungi kunda o'zbek futbol atamaları o'ziga xoslikni aks etadi.

Adabiyotlar

1. Бауэр В. Г. Социальная значимость физической культуры и спорта в современных условиях развития России // Теория и практика физической культуры. – 2001. – № 1. – С. 50–56.
2. Ibragimov M.B. Futbol atamaları. Uslubiy qo'llanma. – 2022. – B. 55-66.
3. Словарь футбольных терминов // Российские и советские спортсмены : сайт. – 2012. – 23 янв. – URL: <http://ruchampions.com/glossarium/61-slovar-futbolnih-terminov>.
4. Терминология футбола // Футбол : сайт. – URL: <https://www.sites.google.com/site/asadovfootball/pravila/> terminologia-futbol.
5. fifa.com - Xalqaro Futbol Uyushmasining sayti.
6. Football.com - Futbol axboroti sayti ru.m.wikipedia.org.wiki tarmog'idan olingan ma'lumotlar.
7. Uff.uz - O'zbekiston Futbol Federatsiyasining sayti.

FORTEPIANO CHOLG'USI VA UNING TARIXIY TARAQQIYOTIGA BIR NAZAR

Qudratova Sevara Faxodovna

Buxoro davlat pedagogika Instituti 2-bosqich magistranti

Annotasiya: Mazkur maqolada Fortepiano cholg'usi va uning tarixi hamda zamonaviy royal “Steinway Sons” musiqa cholg'usi haqida so'z boradi, maqola davomida turli mulohaza va fikrlar keltirilgan. Maqola turli rasmlar vositasida ochib berilgan.

Tayanch so'zlar: musiqa, fortepiano, royal, nota, san'at.

Hakimova Marhabo O'roqovna. OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARIDA ZAMONAVIY TEXNANOLOGIYALAR ORQALI ILM OLISHDA MA'NAVIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH	385
Xaydarova Malika Djamshitovna, Imomova Maxliyo Farxod qizi. TEXNOLOGIYA FANI DARSLARIGA INTEGRATSION YONDASHUV.	387
O.K.Xaydarova. BO'LAJAK MUTAXASSISNI TAYYORLASHDA AMALIY MASHG'ULOTLARNING O'RNI	389
Aziza Tashpulatovna Turgunova. KEKSALAR INTELLEKTIDA «HAYOT DAVOMIDA O'QISH»NING AHAMIYATI.....	391
Ахмадов Назир Рахматович. ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РЕАБИЛИТАЦИИ ПРОЦЕССА ДЕЗАДАПТАЦИИ У ПОДРОСТКОВ.....	394
Muzaffarova Farida Muxtor qizi. JAHON TA'LIMI TAJRIBASIDA VARIATIV MODELASHTIRISHGA DOIR PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK YONDASHUVLAR TAHLILI.....	397
Убайдова Д.А. ВОПРОСЫ ПРОСВЕЩЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ ВСЕСТОРОННЕЕ РАЗВИТОГО ПОКОЛЕНИЯ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ДЖАДИДОВ.	399
Tosheva Nurzoda Toshtemirovna. TA'LIM SIFAT-SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH DAVR TALABI.....	401
Burxonova Manzura Xurshid qizi. SOG'LOM TURMUSH TARZI VA UNING SHAKLLANISHIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR	404
V.I.Umarova, N.A.Samandorova. YANGI O'ZBEKISTONDA MAHALLA INSTITUTI TRANSFORMATSIYASI	407
N.A.Samandorova. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI VA MAHALLA HAMKORLIGINING ASOSIY YO'NALISHLARI	409
Sh.Z.Taylanova. TA'LIMDA BOSHQARUVNING QONUNIYATLARI.....	411
G.T.Yadgarova. MAKTABGACHA OYSHDAGI BOLALAR PSIXIKASINING SHAKLLANISH JARAYONLARI.....	413
Ходжаев Б.Б. ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНО-ФИЗИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ	415
Murodov Ulugbek Utkir ugli. ADVANTAGES AND DISADVANTAGES OF USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN EDUCATION	417
Gulboyev Akbar Tuxtayevich. YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA BARKAMOL AVLOD TARBIYASIGA YANGICHA YONDASHUV - DAVR TALABI.....	420
Z.S.Elov. INTERNET, TARBIYA JARAYONIDA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA	427
Ibragimov Manuchexr Baxtiyorovich. O'ZBEK TILIDA FUTBOL ATAMALARINING IFODALANISHI	431
Qudratova Sevara Faxodovna. FORTEPIANO CHOLG'USI VA UNING TARIXIY TARAQQIYOTIGA BIR NAZAR.....	433
Murotova D.O'. MUSIQA MADANIYATI DARSLARINI TASHKIL ETISHDA FANLAR ARO INTEGRATSIYALASHUV YO'LLARI VA MEKANIZMLARI	435
Yarashev Jo'rabek To'rayevich. MUSIQA MADANIYATI O'QITUVCHISINING PEDAGOGIK MAHORATI.....	438
Yarashev Jo'rabek To'rayevich, Muzaffarova Nurjona Najmiddinova. TA'LIMDA MAQOM-O'ZBEK XALQINING MUSIQIY MEROSI SIFATIDA	440
Muzaffarova Nurjona Najmiddinova. UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQA TO'GARAK MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI.....	441